

VOBKENT TUMANIDAGI AYRIM ETNOTOPONIMLAR

Xayrullayeva Marjona Omonovna,*BuxDU O'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi*

Annotatsiya. *Xalq, millat, qavm va urug', qabila nomlari etnonim hisoblanadi. Etnonimlar har bir davrda ma'lum bir hududda yashab kelayotgan etnik guruhlar haqida ma'lumot beruvchi lisoniy birlik sanaladi. Etnotoponimlar esa elat va qavmlar yashab kelgan o'rinlar, hududlarni muayyanlashtirish va aniqlashga xizmat qiladi. Shuning uchun etnotoponimlarni to'plash, tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, tarix, etnografiya, arxeologiya, geografiya sohalari uchun qimmatli ma'lumotlar beribgina qolmay, madaniyat va ma'naviyatimizning turli yo'nalishlari doirasida keng qamrovli izlanishlar olib borishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *toponim, etnonim, etnografiya, arxeologiya, elat, qavm, etnonomik negiz.*

Аннотация. *Названия людей, народов, племен и кланов считаются этнонимами. Этнонимы – это языковые единицы, предоставляющие информацию об этнических группах, проживающих на определенной территории в любой данный момент времени. Этнотопонимы служат для идентификации и определения мест и территорий, где жили народы и племена. Поэтому сбор и изучение этнотопонимов не только предоставляет ценную информацию для лингвистики, истории, этнографии, археологии и географии, но и играет важную роль в проведении всесторонних исследований в рамках различных областей нашей культуры и духовности.*

Ключевые слова: *топоним, этноним, этнография, археология, народ, племя, этнономическая основа.*

Abstract. *The names of people, nations, tribes, and clans are considered ethnonyms. Ethnonyms are linguistic units that provide information about ethnic groups living in a certain territory at any given time. Ethnotoponyms serve to identify and define the places and territories where peoples and tribes lived. Therefore, the collection and study of ethnotoponyms not only provides valuable information for the fields of linguistics, history, ethnography, archeology, and geography, but also plays an important role in conducting comprehensive research within the framework of various areas of our culture and spirituality.*

Keywords: *toponym, ethnonym, ethnography, archeology, people, tribe, ethnonomic basis.*

Kirish. Etnotoponimlar ko'p asrlar mobaynida tabiiy holda yuzaga kelgan nomlardir. Ularning ijodkori, yaratuvchisi esa oddiy xalq hisoblanadi. Etnotoponimlar, bir tomondan, ma'lum obyektning atoqli oti, juda qadimiy so'z bo'lsa, ikkinchi tomondan, xalqning tarixini aniqlashtirishga yordam beradi. Etnotoponimlar sifatida bugungi kunda saqlanib kelayotgan millat nomlari xalqlarning moddiy va madaniy aloqalarini ham o'zida aks ettiradi. Millat nomlari asosida shakllangan etnotoponimlar tarixiy ma'lumot tashishdan tashqari, mahalliy millat tiliga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Etnonimika sohasining hozirga qadar hal etilmagan va munozarali masalalari bor. Bulardan biri etnonimlar atoqli yoki turdosh ot ekanligi masalasidir. Olimlar bu haqda turlicha fikr bildiradilar. Taniqli toponimist V.A.Nikonov fikricha, hozircha bu masalada bir xil fikrga kelish qiyin, chunki: «Bizda atoqli ot nazariyasi hanuz ishlab chiqilmagan, atoqli hamda turdosh otlar o'rtasidagi chegara aniqlanmagan ekan, etnonimlar bu meniyalarning qaysi biriga mansubligi haqida bahs yuritish foydasizdir».

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida o'zbek toponimiyasi va etnonimikasiga oid ilmiy tadqiqotlar muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Xususan, N.Begaliyev, B.E.Qilichev va M.Z.Safarova kabi olimlarning ishlarida millat nomlari

asosida shakllangan toponimlarning lingvistik va tarixiy xususiyatlari keng yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotda Vobkent hududi toponimlari tizimli ravishda o'rganilib, ularning etnik negizi va yasaliş xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu ilmiy manbalar etnotoponimlarning semantik, strukturaviy va tarixiy jihatlarini aniqlashda muhim nazariy manba vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida tavsifiy, qiyosiy va etimologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Vobkent tumanidagi etnotoponimlar lingvistik jihatdan tahlil qilinib, ularning etnonimik negizi va yasaliş modellari aniqlashtirildi. Shuningdek, toponimlarning shakllanishida tarixiy-etnografik omillarning ta'siri kompleks yondashuv asosida o'rganildi.

Tahlillar va natijalar. Etnotoponimlar etnonimlardan yasalgan toponimlarga bo'lib qolmasdan, o'z tarkibida etnonimiyaning xarakterli va boy faktik materiallarni mujassamlashtiruvchi lingvistik manba sifatida ham qimmatlidir. Ularni o'rganish, bunday nomlar asosida yotgan leksik birliklarning mohiyatini to'g'ri belgilash ko'p jihatdan xalq tilidagi etnonim materiallarning etarli ravishda ilmiy tadqiq etilganligi bilan bog'liqdir.

Etnonimlar atoqli ot (toponim) vazifasiga ko'chgach, u ma'no va funksiyasiga ko'ra o'zgaradi. Dastlab etnonim sifatida kishilarning ma'lum ijtimoiy tarixiy guruhi, ya'ni etnik guruhni anglatgan bo'lsa, endi u yakka tushuncha bilan bog'liq bo'lib, yakka obyektning nomiga aylanadi. Demak, bunday nomlarni etnotoponimlar deb yuritish nomning asosida yotgan etnonimlarning leksik va grammatik strukturasi tekshirishdan iborat emas, balki etnonimdan yasalgan toponimning atoqli otning lingvistik belgilarini aniqlashdan iboratdir. Etnik nomlar toponimlarga urug', qabila, elat, xalq, millatlarning nomlari kiradi. Turkiy tillarda, jumladan, o'zbek tilida etnonimlardan yasalgan toponimlar keng tarqalgan va bunday nomlar «Etnik belgilar asosida yasalgan toponimlar», «etnotoponimlar» deb yuritiladi.

O'zbek toponimiyasi bo'yicha yoqlangan ishlarning barchasida o'rganilayotgan hududda uchraydigan etnotoponimlar tahlil qilindi.

Etnotoponimlarni ularning etnonimik negiziga (toponegiziga) ko'ra ikkiga bo'lish mumkin:

1. Negizda xalq, elat yoki millat nomi yotgan etnotoponimlar quyidagilar:

<i>Arabsaroy</i>	<i>Miyona Arabxona</i>	<i>Tojiklar</i>
<i>Arabxona</i>	<i>Poyon Arabxona</i>	<i>O'zbekon</i>
<i>Boloarabxona</i>	<i>O'rta Arablar</i>	<i>Totor</i>
<i>Katta Arablar</i>	<i>Toshloq Arabxona</i>	<i>Sharqiy O'zbekon</i>
<i>Kichik Arablar</i>	<i>Qirg'izon</i>	

2. Negizda urug', qabila va ularning mayda shahobchalari nomi yotgan etnotoponimlar:

<i>Bahrinobod</i>	<i>Qipchoq Chorrobot</i>	<i>Yuqori Qatag'an</i>
<i>Katta Saroy</i>	<i>Qatag'an</i>	<i>Yuqori Qipchoq</i>
<i>Kichik Saroy</i>	<i>Quyri Nayman</i>	<i>Xargo'sh Nayman</i>
<i>Mavri</i>	<i>Qo'ng'iro't</i>	<i>O'bakulolon</i>

<i>Nayman</i>	<i>Sharqiy Qatag'on</i>	
<i>Qipchoq</i>	<i>Yuqori Saroy</i>	

Joy nomining etnonimdan shakllanganligi, ya'ni nom negizida etnik leksika yotganini aniqlash ba'zan qiyinchilik tug'diradi. Mana shunday hollarda toponimning tarkibidagi ba'zi ko'rsatgichlarga e'tibor berish lozim bo'ladi. Ko'pincha, etnonim tarkibida -li, -chi, -lar, -on, -yon qo'shimchalari uchraydi.

Vobkent tuman etnotoponimlarning ko'pchiligini tarkibida -xona, -on, -lar qo'shimchalari mavjud nomlar tashkil qiladi. Ko'pchilik tushunchasini ifoda etuvchi ushbu tojikcha affiks o'zbekcha -lar, qo'shimchasiga to'g'ri keladi: *Mavrilar, Katta Arablar, Kichik Arablar, O'rta Arablar, Tojiklar*.

Vobkent tumanida -on qo'shimchali etnotoponimlar quyidagilar: *Sharqiy O'zbekon, Qirg'izon, O'bakulolon*

Tumandagi ayrim etnotoponimlar qo'shma tarkibli bo'lib, ular ikki asosdan tashkil topgan. Bular jumlasiga quydagilarni kiritish mumkin: *Arabsaroy, Miyona Arabxona, Poyon Arabxona, Boloarabxona, O'rta Arablar, Katta Arablar, Kichik Arablar, Toshloq Arabxona, Sharqiy O'zbekon, Bahrinobod, Qipchoq Chorrabot, Yuqori Qatag'an, Katta Saroy, Yuqori Qipchoq, Kichik Saroy, Quyi Nayman, Xargo'sh Nayman, O'ba kulolon, Sharqiy Qatag'on, Yuqori Saroy* kabi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, etnotoponimlarning ma'nosini talqin etish borasida ancha munozarali tomonlar bor. Ba'zi ishlarda etnotoponimning (toponimning) ma'no va etimologiyasi deb, uning negizida yotgan etnonimning ma'no va etimologiyasi talqin qilinadi. Bunga qo'shilish qiyin. Aslida, etnotoponimlarning ma'nosi soddadir, ya'ni har qanday etnotoponim o'zi mansub bo'lgan hududda o'tishda etnonimda ifodalangan etnik guruh yashagani yoki ularning avlodi hozirda yashayotgani haqida darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Begaliev N. O'zbek etnonimlari tarixidan. – Samarqand: SamDChTI nashri, 2005. – B. 63-65.
2. Qilichev B.E., Safarova M.Z. Millat nomlari asosida shakllangan toponimlar. Fanlar va yuqori texnologiyalar xalqaro jurnallari. 1-fevral, 2021 yil, 104-107-betlar.
3. Xayrullayeva M.O. Xalq, millat, qavm va urug' nomiga asoslangan toponimlar (*Buxoro viloyati Vobkent tumani misolida*). Yosh tadqiqotchi jurnali, 1(4), 835–839.29.05.2022.
4. Xayrullayeva M.O. Toponimlarning shakllanishi va yasalishi bilan bog'liq ayrim mulohazalar. Til va adabiyot.uz elektron jurnal. 20-son. – T., 2025, 229-bet.
5. Xayrullayeva M.O. Vobkent toponimi va tarixi. "Xalq maqollari nazariy tadqiqining dolzarb muammolari" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to'plam. – Buxoro. 2025. 260-bet.